

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MILLIY TILNI RIVOJLANTIRISHDAGI
XIZMATLARI: TAHLIL VA MUNOSABAT**

Sayidolim Rayimjonov
Oriental universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy tilni rivojlanirishdagi xizmatlari tahlil etilgan. Uning qator jurnal va gazetalarda e’lon qilingan maqolalarini tahlil qilish orqali XX asr boshlarida Turkistonndagi til vaziyati, xususan, turkiy tilning ahvoli, undagi muammolar va ularni yechish yo‘lida jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oya va takliflar haqida xulosalarga keltingan.

Kalit so‘zlar: Behbudiy, jadidlar, turkiy til, Oyina, Sadoyi Farg‘ona.

Millat va milliyat masalasiga shu qadar ahamiyat bergen jadidlarimiz millatning o‘zlarini yashagan davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg‘otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolarga ham befarq bo‘la olmas edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Til masalasi” “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat”, “A’molimiz yoinki murodimiz” kabi maqolalarida davrning benihoya o‘tkir muammolari va bu muammolarning yechimi masalasiga alohida e’tibor berilgani sababi shunda. Mahmudxo‘ja Behbudiy millat farzandlari aziz vaqtlarini Vatan va millatni taraqqiy ettirishga, yuksaltirishga sabab bo‘luvchi zarur ishlar yo‘lida sarflashga chaqiradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millat taraqqiyoti uchun jonkuyar adib edi. U hech qachon o‘z millatini boshqa bir millatga qarshi qo‘ymagan, aksincha, dunyodagi barcha millatlarga mehr va hurmat bilan qaragan keng fikrli ma’rifatchi edi. U til haqida fikr yuritib nafaqat yurtimizda foydalanilyapgan arab, fors, shu jumladan, Yevropa tillarini ham ilm-fan kaliti deb hisoblaydi. Shuning uchun uning tilga oid qarashlari aks etgan maqolalaridan biri «Ikki emas, to‘rt til lozim» nomi bilan nashrdan[chiqdi. Buyuk ma’rifatparvar adib har bir turkistonlik o‘z ona tilidan tashqari fors, arab, rus, hatto fransuz tilini bilmog‘i kerak, aks holda dunyo bilan barobar yashab bo‘lmaydi[1:397] degan qarashda edi. Bu qarashlar hozir ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmay turibdi.

Mutafakkir o‘zining “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida turkistonliklar ijtimoiy turmush-tarziga ko‘ra sharoitlariga ko‘ra to‘rt tilni bilishlari lozimligi dalillar bilan isbotlab beradi. O‘zbeklar ona tillari o‘zbekchani, mumtoz adabiyot tili bo‘lgan forschani, madrasa tili bo‘lgan arabchani, davlat tili – rus tilini bilsalar, ijtimoiy munosabatlarda, ilmiy va adabiy adabiyotlarni o‘rganishda, umuman, turmushda qiyalmaydilar. Xuddi shu kabi tojiklar ham ona tillari – tojikchani bilganlari holda, yangi adabiyot va matbuot ko‘p nashr etilayotgan turkiy (o‘zbek) tilni, madrasa tili – arabcha va davlat tili – ruschani bilishlari lozim.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Ikki emas to‘rt til lozim” degan maqolasida u shunday yozadi: “*Biz turkistonlilarg‘a turkiy, forsiy, arabiylari va rusiy bilmoq lozimdir. Turkiy, ya’ni o ‘zbakiyni bilmoqni sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o ‘zbakiy suylashur, forsiy bo ‘lsa, madrasavu-udabo tilidir. Barcha madrasalarda shar’iy va diniy kitoblar arabi ta’lim berilsa, mudarrislarning tarkiru tarjimalari forschadur. Ayni paytda yana bir til – ruschani ham bilish kerak. Chunki bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islam va millatg‘a xizmat ruscha ilmsiz bo ‘lmaydur!*”[1:396].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Til masalasi” (“Oyna” jurnali, 1915, 11-12- sonlar) maqolasi Turkistonda turk tilini sofligini saqlash va yanada tozalash mavzusiga bag‘ishlangan maqolalarga, birinchi navbatda “Sadoyi Turkiston”dagi chiqishlarga munosabat tarzida e’lon qilingan. Muallif maqolada shunday yozadi:

“*Tilimizdan forsiy va arabiyni quvayluq*” – bu gap yengil orzu, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandir”. Negaki, “Toshkand”, “Xo‘qand” va boshqa minglar ila jug‘rofityoviy ismlarni rajoli tarixiya va yoinki tarixiy voqealarni mahalliy va mashhur odamlarni va oy ham yili, kuni va ...larigacha tag‘yir berib, turkiy ismlar toqib, alarg‘a yangi lug‘atlar tayyorlab, yangidan tadvin etmoq lozim kelur”[1:27].

Forsiy va arabiyanidan maqsad bu – forscha va arabcha so‘zlardir. Bunda turkiy tilni rivojlantirish qarashlarini ilgari suradi. Yuqoridagi matndan shuni bilishimiz mumkin bo‘ladiki, tilimizga boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi bundan bir yarim asr oldin ham yechimi qidirilayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblangan. Mahmudxo‘ja Behbudi yashagan davr muhitida arab va fors tilini o‘rnini katta edi. Shuning adib turkey tilning sofligini saqlashga harakat qilgan va boshqalarini ham shunga chaqirgan. Bu ko‘tarilgan fikrlar hozirgi zamonda o‘zbek tili uchun ham muhimdir. Ayni paytda ijtimoiy muhit o‘zgarib tilimizga arab va fors tillari emas balki, g‘arb tillaridan ko‘plab so‘zlar kirib kelmoqda.

“*Forscha va arabcha so‘zlar o‘rniga qadimgi turkiy so‘zlarni tiklash mushkullik tug‘diradi, Hamda ming yil avvalgi tilg‘a qaytmoq qonuni tabiatga muxolifdur. Chunki moziyga ruju’ mumkin yo‘q. Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur... Xulosa fikrimiz shuki, yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiylari va forsiyni oz yozayluq*”[2:144].

Mazkur qarashlarda ham milliy tilning aslligini saqlab qolishlik muammolari ko‘tarilgan. Mahmudxo‘ja Behbudi imkon qadar turkiy so‘zlarni qo‘llashga chaqirib, boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlardan vos kechib bo‘lmashagini ham takidlaydi. Quyida Mahmudxo‘ja Behbudiy “Til masalasi” maqolasidan hozirgi zamon uchun juda dolzab bo‘lgan xulosa qismini sitata sifatida keltirib o‘tamiz.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALALARING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Dunyomizni ilmu fanidan xabardor bo ‘lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabi, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qirim lahjai adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo ‘lushig ‘a vosita bo ‘lur. Ammo qadim chig ‘atoycha, mo ‘g ‘ulcha, o ‘rxi ‘ng ‘cha va sahroyi tillarni turguzgon ila na foyda? Va u tillarga qayu ilmu fanlar bor? Hozirgi so ‘zimizg ‘a qo ‘shulgan forsiy va arabi so ‘zlar bizni arabu forsg ‘a bir daraja yaqin etar. Ilmu fan kitoblarig ‘a yaqinlashmoqimizg ‘a vosita bo ‘lur. Ba ‘zi birodarlarimizni sof ona tili bor. Ammo ona tilida məktəb, madrasa, fanniy va ilmiy kitoblar ta’sis etolmaydurlar. Chunki so ‘z yetishmaydur. Agarda alar taraqqiy etsa va madaniy bo ‘lsa, hukman hozirgi tilni o ‘zgartirib bo ‘lur. Hamda ming yil avvalgi tilg ‘a qaytmoq qonuni tabiatg ‘a muxolifdur. Chunki moziyg ‘a ruju ‘ mumkin yo ‘q. Begona tildan so ‘z olmoqdan qutulgan til yo ‘qdur. Anglischani arabchadan so ‘ngra eng boy til derlar. Maa fihi, o ‘n minglar ila begona lug ‘atlarni majburan olganligini yozarlar.

Xulosa fikrimiz shuki, yalg ‘uz turkcha so ‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo ‘q. Baqadri imkon arabi va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilmu fan istiloh va lug ‘atlarig ‘a turkchadan muqobil oxtarib vaqtini zoe etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqg ‘a sa ‘y va g ‘ayrat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o ‘tgan zamon uchun emas. «Ona tili, ona tili», bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tilig ‘a maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz buzuq ona tillar shevasig ‘a adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdur. Taraqqiy etgan millatlar onalari o ‘qutar ekan, biz avval onamizni o ‘qutub, anga til o ‘rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur. Binobarin, baqadri imkon oz arabi va forsiy, oddiy, turkiy lug ‘at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdan boshqa iloj yo ‘qdur”.

Mahmudxo‘ja Behbudi yuqorida jahon va ilm-fan tili sifatida rus, ingлиз, fransus, nemis, italyan, arab, yapon tillarini sanaydi. Bundantashqari adabiy til, chet tilidan so ‘z olish, tilni o ‘qitish kabi masalalarni ko ‘tarib unga javoblar ham berib o ‘tadi.

Mahmudxo‘ja Behbudi hayoti va ijodi, shu bilan birga jadid adabiyotini o ‘rgangan olimlardan eng birinchisi filologiya fanlari nomzodi Solih Qosimovdir. Afsuski, uning birlamchi manbalar asosida o ‘rganib yozgan jadid adabiyoti to ‘g ‘risidagi tadqiqoti hozirga qadar topilmadi. Lekin uning vafotidan keyin “O ‘zbekiston adabiyoti va san ‘ati” haftaligining 1990-yil 10- va 26-yanvar sonlarida bosilgan “Behbudi va jadidchilik” degan maqolasi Mahmudxo‘ja Behbudi hayoti va faoliyatini yangi tarixiy davr talablari asosida o ‘rganish ishida muhim voqeа bo ‘ldi. Olim bu tadqiqotida Mahmudxo‘ja Behbudi hayoti, ijodiy va ma ‘rifiy faoliyatining eng muhim nuqtalarini

**“МАHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

fakt va dalillar asosida yoritib berdi. Fan nomzodlari Sherali Turdiyev, Ahmad Aliyev, Sirojiddin Ahmad, shuningdek, Normurod Avazov Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodini o‘rganish ishiga muhim hissa qo‘shdilar. Ayniqsa, filologiya fanlari doktori Begali Qosimov va filologiya fanlari nomzodi Halim Saidov behbudiyshunoslikning fan tarmog‘i sifatida shakllanishida karvonboshilik qildilar. Shubhasiz, filologiya fanlari doktori Hamidulla Boltaboyev, filologiya fanlari nomzodlari Ibrohim G‘afurov va Boybo‘ta Do‘stqorayevning shu sohadagi xizmatlari ham hurmat va e’tiborga sazovor. Bu olimlarning izlanishlari tufayli so‘nggi o‘n besh-yigirma yil ichida Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida shu qadar ko‘p va xo‘b risola va maqolalar maydonga keldiki, ularning har biriga munosabat bildirish mavzudan uzoqlanish bo‘lurdi.

Xullas, Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy tilning sofligi va uning rivojiga qararatilgan nazariyalari hozirgi kunda ham dolzabligicha qolmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy vaziyatga xolisona, har tomonlama yondashishga harakat qiladi. Maqolalarida turkiy til va sof turkiycha so‘zlardan foydalanishga undagan bo‘lsada, adibning o‘zi ham arabcha va forscha hamda g‘arb tiliga oid leksikalardan ko‘plab istefoda etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. J.I.. -T.: Akademnashr, 2021. –512 b.
2. Zarafshonning Behbudiysi. Maqolalar (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: A.Haydarov). – T.: Sahhof, 2020. – 204 b.
3. Sirojiddin Sotvoldiev. (2023). DICTIONARIES OF "MUSALLAS" PLACE IN ARABIC LEXICOGRAPHY. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 356–365.
4. Сотвoldиев, С. М. ўғли . (2023). АРАБ ЛЕКСИКОГРАФИЯСИДА МАНЗУМА МУСАЛЛАСЛАРНИ ТАДКИҚ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ. Innovative development in educational activities, 2(23), 474–478.
5. Sotvoldiev, S. (2022). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS". Thematics Journal of History, 8(1).